

## **BOBUR DEVONINING SHAFIQA YORQIN TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN NASHRINING BOBURSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI**

*Shomurodova Dilshoda Ilyos qizi,*

*Buxoro davlat universiteti, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik II bosqich magistranti, Buxoro viloyati Jondor tumanidagi 46-maktabning ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi.*

**Anatatsiya:** Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub Shafiqa Yorqin tomonidan amalga oshirilgan nashrining boburshunoslikdagi ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur ,Shafiqa Yorqin, nashr, bayt, devon, qiyoslash.

Filologiya fanlari nomzodi, Bobur xalqaro mukofoti laureati, afg'onistonlik o'zbek olimasi Shafiqa Yorqin 1983-yilda Afg'onistonning poytaxti Kobul shahrida Zahiriddin Muhammad Boburning ma'lum bo'lgan qo'lyozma devonlari asosida Bobur she'rlarining yig'ma matnini nashr ettiradi. Ammo bu nashrga Istanbul (Turkiya ) universitetida saqlanayotgan Bobur devoni qo'lyozmasining oxirgi sahifalaridagi she'rlar kiritilmay qoladi. 2001-yil Toshkentda Shafiqa Yorqin o'sha Istanbul qo'lyozmasidan olingan (№ 3743) nusxasidan foydalanib, shu kamchiliklarni to'ldiradi. U o'sha qo'lyozmada avvalgi nashrga kirmay qolgan Bobur she'rlarining hammasini yig'ib bir to'plam tuzadi. Forsiy tilidagi she'rlarini esa o'zbek tiliga nazm bilan tarjima qiladi. Natijada hozirgi kitobxon Boburning she'riy merosi bilan to'laroq tanishish imkoniga ega bo'lmoqda. Kobul nashriga bu qo'shimcha (takmila) Shafiqa Yorqin yozgan kirish so'zi bilan boshlanadi. Unda olimasi Istanbul universitetidagi qo'lyozmaning (№ 3743) qisqacha ilmiy ta'rifini beradi, g'azallar (5ta), qit'alar (9ta), ruboiy (5ta), masnaviy (9ta),

to'rtliklar (10ta), tuyuqlar (2 ta) , fardlar (58 ta), muammolar (54 ta), masnu' she'rlar (1 ta), yana 2 ta ruboiysi ("Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi" va "Ishq oldi shaho to hush ila aql talab"), tarjeband va noma bor. Bular hammasi o'zbek tili (turkiy )da.

Bulardan tashqari, fors tilida bir g'azal, 80 ta ruboiy, 4 qit'a, 10 ta fard va noma bor.

Akademik Aziz Qayumov takmilaga taqriz yozadi va Shafiqa Yorqinning amalga oshirgan bu ishiga katta baho beradi:

Ushbu takmila- to'plamdagi she'rlar matni bilimdonlik va hafসা bilan tuzilgan. Forsiy she'rlarining o'zbek tiliga tarjimasi katta mahorat bilan amalga oshirilgan.

Ushbu to'plam tufayli Zahiriddin Muhammad Boburning 195 ta yangi, hozirgacha ilm ahliga noma'lum bo'lgan katta-kichik she'riy asarlari ilmiy iste'fodaga kiritiladi. Uni imkon boricha tezroq nashr etib, jamoatchilikka yetkazmoq maqsadga muvofiqdir. (Toshkent, 5.12.2001y.)

1983-yili Boburning 500-yilligi Kobul shahrida, Afg'oniston Fanlar akademiyasi tomonidan nishonlanib, shu munosabat bilan shoir devonining ilmiy-tanqidiy matni mufassal muqaddima, so'zlik va izohlar bilan ShafiqaYorqin tomonidan tayyorlanib, chop qilingan. Olima bu nashrda Istanbul universiteti, To'pqqoni saroyi va Muallim Javdat kutubxonolari, Parij milliy kutubxonasi va Hindistonning Pampur kutubxonasi qo'lyozma nusxalaridan foydalangan. Bundan tashqari, Bangol, Istanbul, Peterburg, Toshkent va Maskva nashrlari o'zaro solishtirilib, ularda yuz bergan xatolar ham ko'rsatilganligini aytadi.

Bobur devonining ushbu nashri O'zbekistonda "Kobul nashri" nomi bilan mashhur bo'lib, hozirgacha eng to'liq va to'g'ri matn hisoblanadi. Uning asosida prof. A.Abdug'afurov va Muhammadxo'ja o'g'li Hasanxo'ja tomonidan Bobur devonining yangi nashrlari chop etiladi. Ammo, olima Kobul nashrida ko'rsatilgan

oldingi nashrlarning xatolari bu ikki nashrda qaytadan takrorlanib, yangi matniy va matbaa xatolariga yo'l qo'yilganligini aytadi.

Shafiqa Yorqin "Devoni Zahiriddin Muhammad Bobur"ni tayyorlayotgan vaqtda, ba'zi bir sabablarga ko'ra, Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan Bobur devoni qo'lyozmasining oxirgi sahifalarini nashrga kiritish olmaganligini aytadi. Ya'ni Boburning ushbu qo'lyozmasidagi bir qancha forscha she'rlari, o'zbekcha muammolari, masnu' she'rlari, masnu' tarjibandi (masnu' tarji baytga bog'langan she'rlar), mansur nomalari va o'zbek tilida yozgan bir qancha g'azal va tuyuqlar, ruboiy va masnaviylar, qit'a va fardlari hamda aruz vaznlariga doir Bobur yozgan ikki sahifali matn Kobul nashriga kiritilmay qolganligini (Oldingi nashrlar hamda Bobur devonining Kobul nashri asosida tayyorlangan so'nggi ikki nashrda ham ushbu she'rlar kiritilmagan) aytadi olim.

Bobur Xalqaro fondi bilan hamkorlikda olib borilgan izlanishlari natijasida Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan Bobur devonining to'liq qo'lyozma nusxasi olimaning qo'lga tushadi. Bu nusxadan foydalanib, Bobur devonining takmila (qo'shimcha)sini nashrga tayyorlaydi.

Mazkur qo'lyozma Bobur devonlari orasida eng to'liq va ishonchli nusxa bo'lib, boshqa nusxalarda uchramagan she'riy namunalar, jumladan, tarjiband, masnu' she'rlar, maktublar, forscha she'rlar unda mavjuddir. Ushbu she'rlar nafaqat son jihatidan Bobur ijodini boyitadi, balki janr nuqtai nazaridan turli she'rlarning to'plangani, shoir ijodining yangi qirralarini ochib beradi – deydi, olim.

Olim bu nusxadan foydalanib, hijriy 1362 (1983 milodiy) Kobulda nashr etilgan Zahiriddin Muhammad Bobur devoniga kiritilmagan va nashrdan tushib qolgan she'rlarni qo'shib, ba'zi noqis qolgan she'rlarni takmil qilib, merosning to'liqroq ilmiy-tanqidiy matnini qaytadan chop qilmoqchi bo'ladi, ammo imkoniyat bo'lmay qoladi. Shuning uchun Bobur devonining Kobul nashriga

kirmay qolgan she'rlarni va ba'zi nomukammal holda chop bo'lgan she'rlarni mukamal shaklda nashr etishga qaror qiladi.

Boburning forscha she'rlari va maktubini olima tarjima qiladi. Bu tarjimada imkon qadar Boburning tili, uslubi, qo'llagan so'zlari-yu badiiy san'atlari, qofiyasi va aruziy vaznlarini saqlashga harakat qildim,- deydi. Bir ikki she'r tarjima qilinmay qolganining sababi she'rda tarsi va tajnis san'atining qo'llanganidir. Har bir tilning o'ziga xos ma'nolari borki, ularni boshqa tilga tarjima qilib bo'lmaydi. Tarjima qilgan holda ham necha ma'noli bir so'z o'rniga bir necha so'zlarni ishlatish lozim bo'ladi. Bu holatda she'rning go'zalligi va shoirning mahorati yo'qolib ketadi. Bu o'zbekcha she'riy va nasriy tarjimalar o'zbek o'quvchilariga Boburning forscha merosi bilan yaqinroq tanishish imkoniyatini yaratadi deb, umid qilamiz, - deydi olima.

1993-yilda Boburning 510 yilligi Afg'onistonning Juzjon viloyatida tantanali bayram va ilmiy anjumanlar o'tkazish bilan nishonlanadi. Shu munosabat bilan Muhammad Halim Yorqin tomonida "Bobur manguligi" nomli to'plam nashr ettiriladi. Bu kitobda Boburning Kobul nashriga kirmagan 52 muammosi ham e'lon qilinadi, 27 muammo Shafiqa Yorqin tomonidan yechiladi. "Bobur devoni takmilasi" (qo'shimchasi)da mazkur muammolarni "Bobur manguligi" kitobida ko'rsatilgan yechimi (yana 3 muammo yechiladi) bilan birga taqdim etiladi.

Bobur devonining 3743-sonli qo'lyozma nusxasining kopiyasi 2001-yil 14-fevralda Boburning 518 yilligi munosabati bilan andijonda o'tkazilgan tadbirdan so'ng Bobur Xalqaro fondining "Bobur va jahon madaniyati" kitob muzeyida "Bobur devonining Andijon nusxasi" nomi ostida saqlanmoqda.

"Bobur devonining ushbu nusxasida ba'zi she'rlar va so'zlarda kerakligicha nuqta qo'yilmagan yo nuqtalar qo'yilganda ham o'z joyida qo'yilmagan, gohida so'zlarning osti, usti yo orasida ba'zi bir so'zlar kichikroq qilib yozilgan. Shuning uchun qanchalik urinmaylik, ba'zi joylarini o'qiy olmadik. O'qilmagan joylar uch nuqta (...), ma'nosi aniq ko'rinmagan so'zlar savol (?) alomati bilan ko'rsatildi.

Shuningdek, ba'zi bir jioylarda biror so'z kotib tomonidan ko'chirilmay tushib qolgan. She'ning vazni, ma'nosi va Bobur uslubi yordamida ularni to'ldirib, ( ) alomati ichida ko'rsatildi. Biz bu urinishlarni" Boburga bo'lgan xolis muhabbat, qadrshunoslik va cheksiz muhabbatimiz yuzasidan qildik. Agar bilmay turib, biror xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, Boburning pok ruhidan va barcha shoir ixlosmandlaridan uzr so'raymiz,-deb yozadi olim.

Bobur qoldirgan ilmiy–adabiy merosi o'rganilar ekan, Bobur bilim doirasining nihoyatda kengligi, o'zigacha mavjud bo'lgan va o'z zamonasidagi boy ilmiy–adabiy merosni naqadar chuqur bilganligi kishini hayratda qoldiradi. Bu ilmiy merosni o'rganishda, Shafiqa Yorqinning ilm yo'lidagi izlanishlari tahsinga loyiq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Z.M.Bobur. Devon.Nashrga tayyorlovchi Abdurashid Abdug`afurov.- Toshkent: Fan,1994y.
2. Bobur devoni. Kobul nashriga takmila (qo`shimcha). Nashrga tayyorlovchi Shafiqa Yorqin.-Toshkent: Sharq,2004y.
3. Shuhrat Hayitov. Turkiy xalqlar adabiyotida Bobur ijodi.“Jahon adabiyoti” jurnali, 2018y, 2-son.